

Rasulov Hakim Mamanovich,
siyosiy fanlar nomzodi, dotsent,
Termiz davlat pedagogika instituti
e-mail: rhm1973@mail.ru

HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH – IJTIMOY-SIYOSIY MUNOSABATLARNING MUHIM OMIL SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada huquqiy madaniyatni yuksaltirish – ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning muhim omil ekanligi siyosatshunoslik fani nuqtai nazaridan tahlil qilishga e'tibor qaratilgan. Jamiyat siyosiy-huquqiy tizimida huquqiy madaniyatni shakllantirish bilan bog'liq jarayonlar tizimli tahlil qilingan. Milliy taraqqiyot qonunlarsiz, jamiyat siyosiy-huquqiy tizimining barqarorligi, tinchlik va adolat tomoyillarining qaror topish jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini asoslashga harakat qilingan. Shuningdek, konstitutsiya va qonunlar jamiyatda hamjihatlik va o'zaro muvosani taqoza etdigan ijtimoiy muvozanatning ta'minlanishida huquqiy asos ekanligi, qonun ustuvorligiga asoslangan huquqiy madaniyat jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tashkil etilishi bilan ham bog'liq hodisa ekanligini tizimli o'rganishga e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat, jamiyat, huquq, huquqiy madaniyat, huquqiy munosabatlar, siyosiy-huquqiy tizim, inson huquq va erkinliklari, konstitutsiya va qonun ustuvorligi.

ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация

В статье делается акцент на анализе с точки зрения политологии того, что повышение правовой культуры является важным фактором общественно-политических отношений. Систематически проанализированы процессы, связанные с формированием правовой культуры в политико-правовой системе общества. Сделана попытка обосновать национальное развитие без законов, устойчивость политико-правовой системы общества, принципы мира и справедливости, процессы принятия решений. Также проводится систематическое изучение того факта, что конституция и законы являются правовой основой обеспечения социального баланса, который требует гармонии и взаимопонимания в обществе, правовая культура, основанная на верховенстве закона, явление, относящееся к социально-политическому организация общества.

Ключевые слова: государство, общество, право, правовая культура, правоотношения, политико-правовая система, права и свободы человека, конституция и верховенство закона.

DEVELOPMENT AS AN IMPORTANT FACTOR OF SOCIO-POLITICAL RELATIONS

Abstract

The article focuses on the analysis from the point of view of political science that the improvement of legal culture is an important factor of socio-political relations. The processes related to the formation of legal culture in the political-legal system of the society were systematically analyzed. An attempt was made to justify the national development without laws, the stability of the society's political-legal system, the principles of peace and justice and the processes of decision-making. Also, a systematic study is carried out of the fact that the constitution and laws are the legal basis for ensuring social balance, which requires harmony and mutual understanding in society, a legal culture based on the rule of law, a phenomenon related to the socio-political organization of society.

Key words: *State, society, law, legal culture, legal relations, political-legal system, human rights and freedoms, constitution and rule of law.*

Kirish

O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy tizimning modernizatsiya qilinishi va yangilanishi jamiyatning barcha qatlamlarida huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq jarayon sifatida qaralmoqda. Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish hamda yuksaltirish bilan bog‘liq islohotlar yangi O‘zbekiston siyosiy-huquqiy tizimini yanada mustahkamlanib borayotganidan, demokratik, huquqiy, dunyoviy davlat qurish jarayoni jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019-yil 9 yanvardagi PF-5618-sonli Farmonining qabul qilinishi O‘zbekistonda bu boradagi muammolarning nechog‘lik dolzarbligini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Huquqiy adabiyotlarda huquqiy madaniyatning turli ta‘riflari va talqinlari mavjud. Huquqiy madaniyatga berilgan ta‘riflarning xilma-xilligi tadqiqotchilarning dastlab “huquq” va “madaniyat” kabi tushunchalarga subyektiv yondoshuvlarining o‘ziga xosligi bilan farqlanadi. Umumiy holatda adabiyotlarda huquq tushunchasi – davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umumiy majburiy ijtimoiy normalar tizimi sifatida, yuridik lug‘atda “bu davlat tomonidan o‘rnatiladigan yoki ma‘qullanadigan, o‘zida erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini ifodalaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bajarilishi umummajburiy bo‘lgan yurish – turish qoidalari yig‘indisi” [1]. Konstitutsiyaviy huquq, ensiklopedik lug‘atida “davlatning irodasini ifodalaydigan va uning kuch bilan himoya qiladigan umumiy majburiy normalar majmuasi [2] ta‘riflanadi. Madaniyat tushunchasi esa jamiyat va insonning barcha kuch hamda qobiliyatlari taraqqiyotining muayyan darajasi, inson faoliyati va uning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar majmui sifatida qaraladi. “Huquq” va “madaniyat” hodisalari uyg‘unligi va birligi sifatida huquqiy madaniyat tushunchasini huquqiy jarayonlarda amal qiladigan munosabatlar tizimi, jamiyatning qonunchilik darajasi, amaldagi

qonun va huquqiy normalardan fuqarolarning xabardorik va amal qilish darajasi, huquqning murosasizligi deb ta'riflash mumkin. Boshqacha aytganda huquqiy madaniyat amaldagi qonunlarning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini tushuntirishda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan mamlakatda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan fuqarolarning huquqiy madaniyati daprajasiga bog'liq bo'ladi.

Yuridik fanlari doktori X.Mamatov jamiyat hayotida hukukiy madaniyat namoyon bo'lishining uch darajasini odatdagi (kundalik), kasbiy va nazariy darajalarda farqlagan. Tadqiqotchi o'z qarashlarida "odatdagi darajada huquqiy madaniyat – odamlarning kundalik xayoti doirasi bilan chegaralanadi. Odamlar undan o'z kundalik faoliyatida subyektiv huquqlarni ruyobga chikarish, yuklatilgan vazifalarni bajarishda foydalanadilar. Kasbiy darajada huquqiy madaniyat – o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuridik faoliyat bilan doimiy shug'ullanuvchi shaxslarga xosdir. Mazkur daraja huquqini bilish va xukukiy muammolar, xukukiy faoliyatning maqsad va vazifalarini tushunish darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Nazariy darajada – bu nafakat huquqni bilish, balki uning teran xossalari va qadriyatlari, amal kilish mexanizmi, huquqning samaradorligiga ta'sir kursatuvchi omillarni tushunishning yuksak darajasidir"[3:70] deb ifodalaydi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda huquqiy madaniyat muammosi nafaqat huquqiy aspektda balki falsafiy, siyosatshunoslik va fanlararo tadqiqot obyekt sifatida ilmiy tadqi etilmoqda. Jumladan, N.N.Hasanovning yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishning sotsiologik talqiniga, D.Sh.Sagdullaevaning jamiyatni demokratlashtirish sharoitida fuqarolar huquqiy madaniyatini takomillashtirish ijtimoiy-falsafiy tahliliga, B.U.Mamatyusupov huquqiy madaniyat endogen xususiyatlarining shaxs ijtimoiy faoligiga ta'siriga bag'ishlangan dissertatsion tadqivotlarida muammo sotsiologik va falsafiy aspektda ham o'rganilgan.

Lekin bugungi siyosiy-huquqiy voqelik, ayniqsa yangilanayotgan O'zbekiston siyosiy-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, inson huquq va manfaatlarning ustuvorligi, davlat boshqaruv tizimi liberallashuvi va ochiqlik siyosati, jamoatchilik nazoratining shakllanishi bilan bog'liq jarayonlar mamlakatimizda jamiyatning barcha qatlamlarida huquq madaniyatining yuksak darajada shakllanishini siyosiy fanlar doirasida ham o'rganilishiga e'tibor qaratilmoqda. Ya'ni, huquqiy madaniyat kundalik faoliyatimizdan professional hayot tarzimizga aylanishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani yozishda mantiqiy, siyosiy, huquqiy, qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Huquqiy madaniyat muammosi asosan XX asrning ikkinchi yarmidan keyin inson huquqlari, erkinliklari, davlat va jamiyat munosabatlari tizimidagi o'zgarishlar sabab muhokama maydoniga kengroq qo'yila boshlandi desak hatto bo'lmaydi. Ayniqsa halqaro huquqning subyekt sifatida mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi

ushbu mamlakatlar siyosiy-huquqiy tizimi shakllanishi bilan bog'liq muammolarni vujudga keltirdi. Tabiiyki, bunday sharoitda o'z milliy huquqiy va boshqaruv tizimini tiqishtirishga, milliy huquqiy madaniyatni yevropalashtirish (g'arblashtirish)ga urinishlar ham bo'lganligini kuzatish mumkin. Aslida har bir davlat o'z milliy siyosiy-huquqiy tizimini shakllantirar ekan, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari, dunyo tajribasi bilan birga o'z milliy-tarixiy an'analari, davlatchilik ko'nikmalariga ham qat'iy tayanishi kerak. Shundagina jamiyatda shakllanadigan siyosiy va huquqiy madaniyat xalqaro huquqdan oziqlangan va milliy manfaatlarni to'la ifoda eta oladigan tizimga aylanadi.

Milliy manfaatlarni ifoda etamaydigan qonunsiz jamiyatda siyosiy-huquqiy tizimning barqarorligi, tinchlik va adolat tomoyillarining qaror topishi mumkin emas. Shu ma'noda konstitutsiya va qonunlar jamiyatda hamjihatlik va o'zaro murosani taqozga etdigan ijtimoiy muvozanatning ta'minlanishida huquqiy asos bo'ladi. Qonun ustuvorligiga asoslangan huquqiy madaniyat jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tashkil etilishi bilan ham bog'liq. Yuksak huquqiy madaniyatga ega muhit siyosiy tizimning normal faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratadi. Bu tizimning har bir jabhasi qonunga to'liq mos keladigan, demokratiya yaratgan imkoniyatlardan maqsadli foydalanishi kerak.

Aksariyat yuridik manbalarda huquqiy madaniyat fenomeniga jamiyat hayotida qonunlarning amal qilish darajasi hamda aholining ulardan xabardorligi va ushbu huquqiy normalariga ijtimoiy-huquqiy munosabatlarda qay darajada amal qilishi qobiliyatini ifoda etadi. Boshqacha aytganda, huquqiy madaniyat o'zida huquqiy hodisa, jarayon yoki huquqiy voqelik qonunlarining mohiyatini aks ettirib, uning zarur mazmuni va shakllariga mos keladigan tomonlari hamda elementlarini ifoda etadi [4:168].

Odatda huquqiy madaniyat fenomenining asosiy parametri sifatida qonun ustuvorligi tushunchasi ko'ratiladi. Huquqiy manbalarda jamiyatda qonun ustuvor bo'lishi uchun davlat hokimiyati organlari faoliyatida Konstitutsiya va qonunlarning boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan ustun bo'lishi hamda davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning ularga qat'iy rioya etishi tushuniladi deb ta'riflanadi. Demokratik jamiyat inson huquq va erkinliklarining kafolatiga tayanadi. Jamiyatda inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi mamlakatda qonun ustuvorligining darajasini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda "jamiyatning huquqiy madaniyati shaxs erkinligi va xavfsizligi, inson huquqlarini ta'minlash, uning huquqiy himoya etilishini va ijtimoiy faolligini kafolatlash uchun zamin bo'lib hisoblanadi" [5:31].

Darhaqiqat, huquqiy demokratik davlatning asosiy unsurlaridan biri huquqiy madaniyatdir. Huquqiy madaniyat huquqiy davlatda qonun ustuvorligini mustahkamlashga, fuqarolarda qonunga itoat yetish odatini shakllantirishga xizmat qiladi, insonlarni qonun ustuvorligi ruhida tarbiyalaydi. Fuqarolik jamiyatida huquqiy qonunlarning qo'llanilishi uning yanada rivojlanishi uchun turtki yaratadi. Siyosatshunoslarning fikricha, fuqarolarning yuksak madaniyati, ongliligi va tashkilotchiligi, shuningdek, davlat qonunchiligi talablariga jiddiy munosabatda bo'lishi demokratiya tamoyillarini hayotga tatbiq yetishning asosiy shartidir.

Demokratiya va qonun ustuvorligi o'zaro bog'liq va o'zaro uyg'un jarayonlardir. Huquqiy madaniyat qonunlarni nafaqat bilishni, anglashni, hurmat qilishni balki hayotda qo'llashni ham talab qiladi. Jamiyatning har bir a'zosi qonun va qonun ustuvorligini hurmat qiladigan davlatda huquqiy davlat qaror topadi. Huquqiy madaniyat va huquqiy bilimlarni egallash orqali qonunga, qonuniylikka ishonch shakllanadi. Shundagina huquqiy madaniyat fuqarolik jamiyati ma'naviy madaniyatining asosiy elementi sifatida huquqiy davlatda muhim hodisaga aylanib boradi.

Muammoning tahili shuni ko'rsatadiki, siyosiy-huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida har bir fuqaro, eng avvalo, mamlakat konstitutsiyani yaxshi bilishi, unda belgilangan huquq, burch va majburiyatlarni to'la anglashi va ularni hayotda qo'llay olishga; ikkinchidan, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga; uchinchidan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotganligi kabi omillarga e'tibor qaratiladi.

O'zbekistonda 2020-yilda o'tkazilgan "so'rovlarda ham "Huquq sohasidagi yangiliklardan ko'proq qaysi vosita orqali xabardor bo'lasiz?" degan savol qo'yilgan bo'lib, respondentlarning 53 % televideniedan, 26,8% norasmiy internet manbalaridan (ijtimoiy tarmoqlar, saytlar, forumlar), 11,5% Internetdan, 2,9% bosma OAVdan, 2,0% radiodan, 0,8% rasmiy internet manbalari (rasmiy kanallar, saytlar), 0,4% esa boshqa manbaalardan xabardor bo'lishi haqida ma'lumot bergan" [6]. Bu ko'rsatgichlar huquqiy targ'ibotda OAVlar, internetning o'rni qanchalik katta ekanligini ko'rsatadi.

Muammoning asosi ildizi esa jamiyatdagi siyosiy-huquqiy munosabatlar jarayonida a) huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifati darajasi b) jarayonda oila, mahalla va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmaganligi; v) jamiyatda huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va o'dob-axloq qoidalariga hurmat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmaganligi; g) huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalari aholi ongiga singdirish [7] ishlarining yetarli olib borilmasligi kabi sabablar huquqiy madaniyatning shakllanishiga qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatayotganligi sabab qilib ko'rsatilib kelingan.

Huquqiy madaniyat shakllanishining yuqorida ta'kidlagan parametrlarni inkor qilmagan holda shuni ta'kidlash lozimki, eng avvalo, Davlat va huquq munosabatlarini tartibga solib olish kerak. Prezident farmonida ta'kidlanganidek, "jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" [7] degan hayotiy g'oyani mustahkamlash amaliy ishga aylanishi kerak. Ya'ni, siyosiy-huquqiy munosabatlarda Davlat va uning tegishli vakolatli organlari faoliyatida huquqiy nigilizmni bartaraf etish kerak. Ya'ni, mansabdor shaxslari faoliyatining qonuniyligi, ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlari mas'ullarning huquq normalarini mensimasligi, ularga nisbatan

hurmatlilik munosabati, ba'zi holatlarda rahbar kadrlarning so'zi qonunga aylanib, amaldagi huquqiy normalarni inkor qilinishi holati juda ko'p uchraydi. Qonunchilikda o'z aksini topgan masalalar qanchalik mantiqiy va real hayotimizga asosli bo'lmasin, ko'pincha amalda ishlamasligi aksariyat hollarda jamiyat a'zolari tomonidan huquqqa ishonmaslik yoki davlat hokimiyati organlari faoliyatidagi "huquqiy munosabatlarni" qabul qila olmaslik tuyg'ularni shakllantiradi. O'z nafatida tegishli vakolatli organlar bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda huquqiy bo'shliqning paydo bo'lishiga olib keladi. Tan olish kerakki, faqatgina qonunlarni o'rgatish va javobgarlik bilan qo'rqitish orqali qonun ustuvorligi va demokratik taraqqiyotga erisha olmasligimiz inkor qilib bo'lmas haqiqatga aylanib ulgirdi. Shu ma'noda jamiyatda huquqiy madaniyatning shakllanishi eng avvalo real hayotda huquqni qanday bo'lsa shunday ishlashiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Huquqshunos olim X.Mamatov o'z tadqiqotlarida jamiyat hayotida huquqiy madaniyat namoyon bo'lishini o'ziga xos jahatlarini ajratishga uringan. Unga ko'ra huquqiy madaniyat o'zida a) huquqiy voqelikni anglash, ya'ni huquqiy ongining holatini; b) jamiyatning huquqiy ma'rifatini; v) aholining huquqni, qonunlarni bilishi va ulavrga hurmat darajasi; g) huquqni qo'llash darajasining yuqoriligi; d) jamiyatdagi siyosiy-huquqiy faoliyat, munosabatlar tizimi, qonun ijodkorligi, huquqni muhofaza qilish, boshqaruvning legitimligini ta'minlashning samarali usullari; ye) barcha davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatining siyosiy-huquqiy tizimga to'la muvofiqligi, xususan aholining, ayniqsa mansabdor shaxslarning qonunlarga so'zsiz itoatkorligini ifoda etadi [3:67].

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasida "fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburlar" [8:11] degan norma muhurlangan. Mazkur normalarga eng avvalo davlat boshqaruv tizimi, mansabdor shaxslar amal qilishi lozim. Boshqacha aytganda bu me'yorlar butun jamiyat, ayniqsa davlat hokimiyati organlari mansabdorlari qonun talablariga rioya qilish muhimligini ongli ravishda anglashi kerak. Demak, huquqiy madaniyat darajasi eng avvalo mas'ullarning, fuqarolarning qonunlarni qay darajada bilishi shuningdek, qonunni amalga oshirishning ahamiyatini tushunishiga bog'liq. Mazkur omillar asosida jamiyatda huquqiy madaniyatning qaror topishi darajasiga tanqidiy yondoshib, muammoning asl sabablarini tizimli tahlil qilish lozim [9:428].

Har bir jamiyatda jahon siyosiy-huquqiy taraqqiyoti tamoyillariga monand demokratik o'zgarishlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu bir tomondan, O'zbekistondagi siyosiy-huquqiy islohotlarning yo'nalishlari va mezonlari, kadriyatlar va maqsadlarini anik belgilashga yordam bersa, ikkinchi tomondan, milliy taraqqiyotda huquqiy madaniyatimiz qaerdan kelib, qayoqqa ketayapti, uning o'ziga xos jihatlari, rivojlanishining shakl va ko'rinishlari, mezonlari bormi yoki dunyodagi mavjud huquqiy taraqqiyot o'zanidan ketadimi, degan savollarga javob topishga imkon yaratadi [5:10].

Buning uchun esa nazarimda milliy huquqiy madaniyat tizimi shakllanishiga birinchidan, huquqiy normalarning jamiyatga ta'sirini kuchaytirish va hamma joyda bir xilda ishlamayotganligi bilan bog'liq holatlarning tub ildizlarini o'rganish; ikkinchidan, qonunning kishilar xulq-atvoriga ta'sir etish usullarini bilish, ijtimoiy,

iqtisodiy, madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan bog‘liq bo‘lgan usullarni ishlab chiqish; uchinchi, davlat ijroiya organlari faoliyatining huquqga mosligining ta‘minlanishi; to‘rtinchidan, mansabdor shaxslarning, davlat apparati va jamoat tashkilotlarining hamjihatlikda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga harakat qilinishi zarur [11].

Buning uchun davlat va jamiyat boshqaruvida huquqiy madaniyatning barcha unsurlaridan foydalangan holda, tegishli organlarning huquqiy maqomi bilan bir qatorda boshqaruv jarayonini ham tartibga solishi hamda ular faoliyatining barqaror va maqbul rejimini yaratishi zarur. “Qonun talablarini bajarmaslik bilan bogliq har bir holat yuzasidan aniq huquqiy ta‘sir choralari ko‘rish kerak” [10:161].

Ijro organlari tizimida asossiz qarorlar takrorlanmasligi kerak. Bu masalalar boshqaruv kadrlarining huquqiy tayyorgarligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, professional vazifalaridan tashqari huquq asoslarini ham juda chuqur o‘zlashtirishga erishishi lozim. Chunki amaldagi qonunlarni to‘g‘ri qo‘llash ana shu bilimga bog‘liq. Bunday holda, noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi. “Odamlar hamma narsaga chidashi mumkin, lekin adolatsizlikka chiday olmaydi” [10:193].

Xulosa

Yangilanayotgan O‘zbekiston siyosiy-huquqiy tizimining yanada takomillashuvida jamiyat huquqiy madaniyati masalasi asosiy o‘rinni egallamoqda. Milliy taraqqiyotning hozirgi bosqichi jamiyat siyosiy-huquqiy munosabatlar tizimida huquqiy madaniyatni, huquqiy savodxonlikni har tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Zero, yuksak huquqiy madaniyat demokratik islohotlarning poydevori hamda siyosiy-huquqiy tizim yetuklik darajasini ifodasidir. Jamiyatni molernizatsiya qilish va yangilash sharoitida huquqiy madaniyat shakllanishiga ta‘sir qiluvchi ijtimoiy-siyosiy omillar tahlili yuzasidan quyidagi nazariy xulosaga kelishi mumkin.

Birinchi, fuqarolarda huquqiy bilimlari, ongi va madaniyati yanada yuksak darajada bo‘lishi nafaqat ularning o‘ziga, balki ijtimoiy, siyosiy munosabatlar tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga ham bog‘liq.

Ikkinchi, huquqiy madaniyat yuksalishi uchun davlat va jamiyat boshqaruv tizimini, jumladan ijro va huquq-tartibot organlari faoliyatining legitimligini oshirish, milliy taraqqiyotimizga to‘siq bo‘layotgan turli me‘yorlarni ham tartibga solishga lozim.

Uchinchi, har bir fuqaroga huquqiy madaniyat amaldagi qonunlarda bo‘lgilangan javobgarlikdan qo‘rqib emas, balki uni himoya qilish uchun, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun, konstitutsiyaviy majburiyatlarini sidqidildan bajarish uchun ham kerak bo‘ladi.

To‘rtinchidan, yangilanayotgan O‘zbekiston siyosiy-huquqiy tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar “yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan konseptual g‘oya asosida “shaxs – oila – mahalla – ta‘lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli tashkil etishiga erishish kerak.

Xulosa qilib aytganda jamiyat huquqiy madaniyatning shakllanishi tizimli jarayon bo‘lib, muammoning ijtimoiy-siyosiy omillari nafaqat fuqarolarning

huquqga munosabati balki ijro va huquq-tartibot sohalari legitimligi bilan uzviy bogʻliqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy huquqiy internet partali. Yuridik lugʻat / <https://huquqiyportal.uz/dictionary/index?alphabet=%D2%B2&page=7&per-page=10>
2. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchilik maʼlumotlari bazasi. Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lugʻat. <https://lex.uz/dictionary?word=%D2%B2%D0%A3%D2%9A%D0%A3%D2%9A>
3. Mamatov X. Huquqiy madaniyat va Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish muammolari. T: “YURIST-MEDIA MARKAZI” nashriyati, 2009, 70-bet.
4. Петров А.В. Правовая культура и ее структурные компоненты: проблемы генезиса. Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2017 №3. – С.168
5. Tadjixanov U. Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-tom, T.: “Oʻzbekiston respublikasi IIV akademiyasi” 1998, 31-bet.
6. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat: jamoatchilik fikr qanday? <https://huquqiyportal.uz/news/2021/03/15/huquqiy-ong-va-huquqiy-madaniyat-jamoatchilik-qanday-fikrda/1126>
7. Oʻzbekiston respublikasi prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PF-5618 farmoni. 09.01.2019.
8. Oʻzbekiston respublikasi prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PF-5618 farmoni. 09.01.2019.
9. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: “Oʻzbekiston” 2023, 60-modda
10. Расулов, Хаким Маманович. "Шарқ ва ғарб: сиёсий ва ҳуқуқий маданият компонентлари уйғунлиги. “Взгляд в прошлое”. SI-1№ 3 (2020).
11. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. T.1. - T.: “Oʻzbekiston”-2017, 161-bet.
12. Расулов, Хаким. "Сиёсат–маданият, ҳодиса ва фан сифатида." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.7 (2022): 691-702.